

N.R.KARIMOVA

**BOSHLANG`ICH TA`LIM
PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI**



5111700 – Boshlang`ich ta`lim va sport- tarbiyaviy ish

Namangan - 2020

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**BOSHLANG`ICH TA`LIM PEDAGOGIKASI,
INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI**

(o`quv qo`llanma)

5111700 - Boshlang`ich ta`lim va sport- tarbiyaviy ish

NAMANGAN - 2020

N.R.Karimova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi–2020.-114 b

Ushbu o'quv qo'llanmada boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishda o'yin ta'lim texnologiyalarining ijtimoiy-pedagogik mohiyati, asosiy yo'nalishlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni va pedagogik-psixologik mohiyati, xorijiy tajribalarining o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirishdagi qarashlari, tamoyillari va muhim omillari, innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish borasida so'z yuritiladi.

Shuningdek, amaliy jixatdan so'nggi "Ham o'ylaymiz ham o'ynaymiz" bo'limi rasmlar orqali o'ynaladigan didaktik materiallar asosida o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari, tarbiyachi-pedagoglarga, mustaqil tadqiqotchilar va ijtimoiy soha xodimlari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: pedagogika fanlari doktori,
dotsent **O'.M.Asqarova**

Taqrizchilar: "Turon" fanlar akademiyasi,
Akademigi, dotsent **B.N.Oripov**

pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent **M. Hamidova**

O'quv qo'llanma Namangan Davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 17.04.2020 yildagi 8-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

So`z boshi

Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizasiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli islox qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘tib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga ko‘ra **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi** tasdiqlandi, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag` bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish,

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ilmiy jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda boshlang'ich ta'limning o'рни, global ilmiy jarayonda filologik ta'limni rivojlantirish hamda tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda integratsion ta'lim yo'nalishlar bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'рни muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularga o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilishlariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish, o'yin – ta'limiy faoliyat sifatida, bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar mavzulari doirasida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'YIN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'quvchilarning fikrlashi hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, refleksiya tashkil etadi. Refleksiya so'zi (lot.«reflexio»-orqaga qaytish)-«har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shakli hisoblanadi. U inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir». Ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'quvchining bilimini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'quvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol

mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinadi.

B.Z. Vulfov, V.N.Xarkin kabi olimlar refleksiyaning - insonning o'z-o'zini anglash deb ta'riflaydilar. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u o'z samarasini ko'rsatadi. Insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan ma'lumot va bilimlar har bir yangi avlod tomonidan o'zlashtirilib, boyitilib borilishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. To'plangan ma'lumot va bilimlarni o'zlashtirish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u faqat ilmiy jihatdan asoslangan holda maxsus tashkil etilishi lozim.

Bilish jarayoni cheksizdir. Unda tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonuniyatlarining hali o'rganilmagan sohalari kashf etiladi. Maktabda bilim va malakani o'zlashtirish uzviy harakterga ega. Bugungi o'rganiladigan bilim oldin o'zlashtirilgan bilimlarni taqozo qilsa, kelajakda o'zlashtiriladigan bilimlar uchun asos sanaladi. Natijada ta'lim mazmunini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilish darajasi, bilimlarning shakllanish doirasi, samarasi ham yangi ko'rinishga ega bo'ladi. Bilimlarni egallash bosqichlari har bir shaxsning psixologik xususiyatlariga tayanadi, ya'ni shaxsning ma'lumotlarini sezish, idrok etish, anglash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va amalda qo'llash kabi xususiyatlari har xil bo'ladi. Bunda o'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

- O'quvchilar bilish qobiliyatiga asoslanib, o'qish uchun qo'zg'atuvchi sabablar (motivlar) yaratish;
- Berilayotgan ma'lumotlarni idrok etish uchun sharoit yaratish;
- Ta'lim jarayonida bolalar ongida mavjud bo'lgan bilimlarga va shakllangan tajribalariga suyanib, ma'lumotlarni anglash, taqqoslab, tahlil etish va xulosalar chiqarishga undash;

- O'quvchilarning olgan bilimlarini, amaliyotda qo'llash orqali ularda ko'nikma va malakalarni hosil etish hamda ularni mustahkamlash va takomillashtirish;
- Bilimlar, ko'nikma va malakalarni doimiy amaliyotda qo'llanishini ta'minlash;
- Ta'lim natijalarini tahlil qilish va o'quvchilarning keyingi istiqbolini tashhis etish va rejalashtirish.

Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi. Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o'qituvchi didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo'llari, o'yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik o'yin darslari ta'lim va tarbiya berish, o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsni rivojlantirish vazifasini bajaradi. Didaktik o'yinli darslarni mazmuniga ko'ra sahnalashtirilgan rolli o'yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o'yinlari, konferentsiya va o'yin mashqli darslarga ajratish mumkin. Mazkur darsga hamma o'quvchilar ular qaysi rolni bajarishidan qat'iy nazar qizg'in tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha - o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o'yinlar;
- o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar;
- vaqt me'yori bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar

aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar. Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan turli, umumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

kantselyariya tovarlari - turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skotch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, yelim va boshqalar;

texnika vositalari - proektor, mikrofon, kompyuter; videokamera, videomagnitofon, televizor va boshqalar;

o'quv asbob-uskunalari - o'quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, o'lchov asboblari, o'quv vositalari, moslama, mexanizm, model va boshqalar;

Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedogoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o'quvchilar bilimini rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati beqaror bo'lib, bir soat uchun mo'ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydi. Bilim olishda avval o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, ayniqsa, muhim vosita hisoblansa-da, bolalar uchun zerikarli jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili, matematika darslarida yozish natijasida qo'llarni toliqishi, o'qish darslarida bir mavzuni takrorlab o'qish bolalarni zeriktiradi. O'quvchilarni kayfiyatini ko'tarish, toliqqan qo'llarini chigalini yozish maqsadida, turli didaktik vositalar hamda o'yinlar o'tkazish o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Didaktik vositalarga boshqotirma, krossvord, rebus, topishmoq, topshiriq va boshqalar kiradi. Quyida ularning ta'rifini keltirishni joiz deb bildik.

Krossvord. “Krossvord” atamasi ingliz tilidagi “cross” va “word” soʻzidan olingan boʻlib, mantiqan (“cross” – kesib oʻtish, kesishma, “word” – soʻz) “bir-biri bilan kesishadigan soʻzlar yigʻindisi”, lugʻaviy maʼnosiga koʻra esa “kataklarni xarflar bilan toʻldirib, shu kataklarga yashirilgan, ishlanayotgan soʻzni topish oʻyini¹”, - mazmunini anglatadi.

Rebus. Lugʻaviy maʼnosiga koʻra (“lotincha” narsa, buyum, narsalar bilan, narsalar vositasida) tushunchasi “voqea, hodisa, harakat maʼnosi mavxum soʻzlar, teskari, chalkash ifodalar yordamida ifodalash²”, demakdir. Ushbu vositalardan foydalanish dars samaradorligi va refleksiv koʻnikmalarni rivojlantirishda asos boʻla oladi.

Oʻyin - inson faoliyatining koʻrinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. Oʻyin - inson oʻzligining namoyon boʻlishi, uning takomillashuv usulidir. Oʻyin kattalar hayotida muayyan oʻrin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamroxi” ham deb atash qabul qilingan. U bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va taʼlim bilan uzviy aloqada boʻlgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon boʻladi. Bola shugʻullanadigan koʻp jiddiy ishlar oʻyin shaklida boʻladi. Oʻyinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, oʻylaydi.

Bola shugʻullanadigan koʻpchilik jiddiy ishlar oʻyin shaklida boʻladi. Oʻyinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, oʻylaydi, oʻyin jarayonida bolaning xotirasi faol ishlaydi, taʼsirchanlik va iroda sifatleri namoyon boʻladi. Oʻyin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon boʻladi. Oʻyinning pedagogik nazariyasini uning mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq tushungandagina yaratish mumkin. Oʻtkazilgan tadqiqotlar oʻyin nazariyasining asosiy masalalarini birmuncha chuqurroq yoritish imkonini beradi, chunonchi:

¹ Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi. Konimex – Mirzo/ Bosh tahrir hayʼati aʼzolari: M.Aminov va boshq. 5-tom. T.: “Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyot, 2002.-418 b.

² Rasulov I.M. talabalarning loyixalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (...)dis.-Toshkent:2018.-44-46 b.

1.O'yinning mohiyati va o'ziga xosligi.

2.O'yinning bola tarbiyasidagi o'rni va uning bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonda tutgan mavqei.

Pedagogikada bolalar o'yini o'zida kattalar harakati va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi tarixan tarkib topgan faoliyat turi sifatida baholanadi. O'yin buyumli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglash ishiga yo'naltirilgandir. U o'zining kelib chiqishiga ko'ra ham, yo'nalishi va mazmuniga ko'ra ham ijtimoiy voqelik hisoblanadi.

O'yinning turlari. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlariga, kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni favqulodda qiyinlashtiradi, biroq, o'yinlarga to'g'ri rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur. Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda keng tarqalgan: ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlar.

Qoidali o'yinlar kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiriladi. Mazmuni qoidalarining murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhni xalq o'yinlari tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan avlodga o'tib, bizga yetib kelgan.

O'yinning tuzilishi. O'yin - bu bola faoliyatining turi. SHunday ekan, barcha faoliyatda bo'lgani kabi unga ham qator hislatlar: maqsadning mavjudligi, sabablar, amalga oshirish vositalarining rejali harakatlar, natijaning mavjudligi kabilar xosdir. Har qanday ko'rinishdagi o'yin tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechadi. Har bir o'yinda bola uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad mavjud: qizchasini ovqatlantirish, kosmosga uchish, quvlashmachoq o'ynayotganda o'yin qatnashchisiga qo'l tekkizish, "qopqondan" qutulib chiqish va hokazolar.

Bola o'yin mavzusi va mazmunini kelisha oladigan, rollarni taqsimlaydigan, o'z o'yin faoliyatini muayyan darajada rejalashtiradi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani kabi o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi. O'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi.

O'yin o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular orasida sabablarning o'ziga xosligi asosiy hisoblanadi. O'yin - bu bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyati sifatida bola shaxsining tarkib topish darajasiga ko'ra kechadi.

Bolalarning o'yindagi erkinligi va mustaqilligi shundaki, o'yinda amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi, u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bola o'yindan zavq olish maqsadida foydalanadi. Bola o'yinining asosiy sababi "voqelikning uning uchun ahamiyatli bo'lgan tomonlarini boshdan kechirish" hisoblanadi³.

O'yin faoliyatining ijodiy tabiati. Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik, zukkolik bilan bog'liqdir. O'yinda bolaning tafakkuri va xayoloti faol ishlaydi. O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir.

Talab darajasida rivojlanayotgan bola ko'p harakat qiladi va ishtiyoq bilan o'ynaydi. O'yinni bolalar hayotini tashkil etishning forma va ko'rinishlaridan biri deb bejizga aytishmaydi. O'yin bola hayotini qiziqarli mazmun bilan to'ldiradi, uning xulq – atvorini shakllantirib boradi. Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan muloqotga kirisha

³ S. L. Rubinshteyn.

oladigan, tartibli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Jozibali o'yin ta'sirida bolaning qanchalik o'zgarib ketishiga bir nazar tashlang-a, kamgap bola ko'p gapiradigan, odamovi bola dilkash, qo'rs bola xushmuomila bo'lib qoladi. Tinib - tinchimas bola o'yinga berilganda boshqa hollarda bajara olmagan ishlarni o'yin jarayonida osonlik bilan amalga oshiradi. O'yin jarayonidagi muloqotlar bolalar uchun xulq - atvor normalarining amaliy maktabi bo'lishga erishishimiz kerak.

Bunda ular o'yin harakatlarida nima yaxshi-yu nima yomonligini, vijdonan, adolatli, o'rtoqlarcha ish tutish nima, u qanday ekanligini anglab yetishlariga yordam beradi. O'yinlarni shunday tashkil etish kerakki, bunda soddalikdan asta sekin murakkablikka o'tish qoidalariga rioya etish kerak. Vaqti-vaqti bilan o'yin turlarini yangilab turish kerak. O'yin jarayonida bolalarning hamkorlik kabi ijodiy harakatlarini rag'batlantirib borish kerak. O'yinlar bolalarni ham aqliy, ham ma'naviy, ham axloqiy tarbiyasidagi tutgan o'rni benihoya kattadir. Bolalar tafakkurining shakllanishi va rivojlanishini yaxshilash niyatida foydalanish mumkin bo'lgan quyidagi o'yin mashg'ulotlarni tavsiya qilmoqchimiz.

O'yin: "Antonim so'zlar"

Bu o'yin boshlang'ich sinflarda o'tkazilishi mumkin. O'yin mashg'ulot bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi. O'yin individual, guruh bilan o'tkazilsa ham bo'ladi.

O'yin sharti quyidagicha: Tarbiyachi bolaga bir so'zni aytadi, bola esa shu so'zning qarama - qarshi ma'no anglatuvchisini topadi. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, qorong'i - yorug', qattiq - yumshoq, uzoq - yaqin, shirin - achchiq ...va hokazolar. Odatda bolalar o'yin boshida bir oz qiynaladilar. Aytilgan so'zga javoban antonim emas, sinonim so'zlar bilan javob beradilar. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng absrakt tushunchalarni ham osonlik bilan anglaydilar, hamda tezlik bilan javob berishga harakat

qiladilar. Masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa, odobli - odobsiz kabilar.

“Ismlashtirish”

Bu o'yin rasmi va rasmsiz tarzda o'tkazilishi mumkin. Biz sizga rasmsiz variantini tavsiya etmoqchimiz. Bu o'yin ham bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanishiga samarali yordam beradi deb o'ylaymiz.

O'yin sharti quyidagicha: o'qituvchi bolaga bir guruhga mansub bo'lgan uchta yoki to'rtta narsa nomini aytiladi. Bola ularning umumiy nomini aytishi kerak. Masalan:

- o'qituvchi: ot, qo'y, sigir, buzoq so'zlarini aytsa,
 - bola esa: ot, qo'y, sigir, buzoq - uy hayvonlari deb umumiy nomini aytadi.
- Tarvuz, qovun, handalak - poliz mahsulotlari, qo'lqop, palto, etik, bo'yinbog' - qishki kiyimlar.

Bolalar faolroq ishtirok eta boshlagach ularga “To'rtinchisi ortiqcha” o'yinini taklif etish mumkin. Bu o'yinni ham rasmlarsiz tashkil etishni tavsiya etamiz. Bolalarga bir guruhga mansub bo'lgan uchta narsa va boshqa guruhga mansub bitta narsa nomi aytiladi. Bolalar ulardan to'rtinchisi ortiqchaligini anglashlari va ayta olishlari kerak. Sababi so'ralganda bola fikrini asoslab bera olishi kerak. O'yin jarayonida faqat to'rtinchisi emas, bolalarda hosil bo'lgan ko'nikmalarni hisobga olgan holda birinchisi, ikinchisi, uchinchi ortiqcha tarzida ham tashkil etish mumkin. Chunki faqat to'rtinchisi ortiqcha bo'lsa, bola fikrlamay turib, o'zida oldingi o'rtoqlarining javobidan ko'nikma hosil qilib, to'rtinchisi ortiqcha deb qo'ya qoladi. Bu o'yinda bolalarning tafakkuri rivojlanibgina qolmay, shu bilan birga ularning nutqiy faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi. O'yin individual tarzda o'tkazilishi bilan birga, sinfda musobaqa tarzida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda o'yinlar juda qiziqarli, yaxshi samara berishi bilan bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantiradi.

“Avval nima bo'lgan edi?” Bu o'yin shartiga ko'ra bolalar o'qituvchi tomonidan aytilgan narsaning avval nima bo'lganini aytishlari kerak. Masalan:

jo'ja (tuxum), ot (toychoq), kapalak - (qurt) kabilar. Bundan tashqari bittadan ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: non – un - bug'doy, uy - g'isht - loy, stol - yog'och – daraxt – urug', ko'ylak – mato – ip – paxta - chigit tarzida.

“Hikoya” o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1-variant: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“Quruvchi” o'yini o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan “g'ishtchalar” yasaydi va bu “g'ishtchalarga” savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g'ishtchalar” soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlariga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g'ishtcha” ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining “maydoncha” lariga “g'isht” ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi “g'ishtcha” ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan “gishtcha” olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. “Qurilish maydonchasi” da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi.

“Nima yo'qolib qoldi” o'yinida, stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar sur'ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yindan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bu o'yin ayniqsa alifbe davrida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keladi.

“Qarmoq” o'yini: Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog'ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg'ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnet bo'lakchasi bog'lab qo'yiladi. O'quvchilar bu “qarmoqlar” vositasida “baliqchalar” dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo'ladi.

So'z o'yini: o'quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilan boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nlab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi. Bu o'yindan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ertaklarda foydalanish mumkin.

O'YIN – TA'LIMIY FAOLIYAT SIFATIDA

Bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha

dunyoqarashi kengayib boradi. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Shu narsa ahamiyatliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining xaddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan xal qilinadi? Bu qarama-qarshilik birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-hayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan

birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllanadi. Demak, ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. O'yin bolalar hayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar hayolining o'zi, o'yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan jarayondir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil hayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir xususiyati, o'yin jarayonida bolaning qiladigan hatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, o'qituvchining, uchuvchining hatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, o'qituvchilarning hamda uchuvchilarning hatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan bolalar o'zlarining o'yinlarida aniq odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, oyisini, dadasini, akasini, o'qituvchisini va shu kabilarni. Bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa

va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir.

Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy hislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning hatti-harakatlarini aks ettiradilar. Bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shaklidan hislatlarga ega bo'lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi. Bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat

turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos - ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar va bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga o'quvchilar yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadilar.

BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLAR

Didaktik o'yin bolalarning aqliy qobiliyatini o'stiradi. Bola o'yin jarayonida faollashadi. O'yin vazifalari diqqatni jamlashni, o'yin mazmunini anglashni talab qiladi. O'yin bolani ta'lim-tarbiya olishga, zarur ko'nikma hosil qilishga undaydi. Didaktik o'yinlar bolalarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo'lib kamol topishida tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O'yin timsolida bolalar jamoa bo'lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, ishlashga va mustaqillikka o'rganadilar. Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatini, ongini o'stirishga, ularning fikrlash tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning his-tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa,

ularning sezgi a'zolari (sezish, ko'rish, tinglash va boshqalar) faoliyatini oshirishga yordam beradi. Uning idroki, zehni, xotirasi, irodasi mustahkamlana boradi. Diqqati, topqirligi oshib boradi. Olgan bilimlarini o'z faoliyatida mehnat, o'yin jarayonida sinab ko'rish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Ulardan foydalanish esa bugungi kunda interfaol usullar orqali amalga oshiriladi.

Interfaol usullarning ikkita muhim maqsadi bor:

- Ta'lim olishda bolaning faol o'rnini belgilash
- Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot o'rnatishi

Interfaol ta'lim strategiyalaridan foydalanib, bolada refleksiya ko'nikmalarini umumiy rivojlanishiga urg'u beramiz:

Jismoniy- (motorika) – harakatga undaydi

Bilish (aqliy) – savol berishga, kashf qilishga va birgalikda tajriba o'tkazishga hamda fikr almashib, birgalikda qaror qabul qilishga undaydi

Nutq va muloqot – turli nutqiy va nutqiy bo'lmagan muloqotdan foydalanadi

Ijtimoiy – hissiy – kattalar va bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishib, o'zlarining shaxsiy hissiyotlarini topishlarini va boshqalarning ham hissiyotlarini tushunishni xohlaydi.

Kognitiv: Bola dunyoni anglaydi. Bola turli xil fikrlashni shakllantira oladi. Real muammolarga duch kelganida ularni mustaqil hal eta oladi.

Ijtimoiy: Tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Madaniy tushunchalarning shakllanishi yuzaga keladi.

Hissiy: Boshqalarning hissiyotini tushunish. Vaziyatga mos keladigan hissiyotlarni izhor qilish kabi hissiy kechinmalar rivojlanadi.

Harakatlanish (Motorika): Faol o'yinlarga jalb qilish – yirik harakat ko'nikmalari. Mayda jismlarni ushlay olish va murakkab harakatlar, ular bilan o'ynash – mayda harakat ko'nikmalari shakllanadi.

Shakllanadigan nutq va savodxonlik:

Boshqalarning nutqini tushunish. Boshqalar bilan muloqot qilishda og'zaki va og'zaki bo'lmagan shakllardan foydalanish. Yozma belgilar tizimini tushunish va undan foydalana olish qobiliyati – o'qish savodxonligi oshadi. O'yin faoliyati bola hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgani holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar o'yinning ahamiyati, qadri, uning shartlilikini hamda ijtimoiy xulqini shakllantirishda shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilab olishi, uning muomala chog'idagi xatti-harakatini aniqlab olish hamda miyaning keyingi o'rganiladigan mavzuga tayyorlanishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Boshlang'ich sinf davrida bolaning aqliy qobiliyatlari rivojlanayotgan davrda o'yin juda muhim ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar.

O'yin - inson o'zligini namoyon qilishi, uning takomillashuvi usulidir. U bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O'yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi. Bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o'ylaydi, o'yin davrida bolaning hayoli, xotirasi faol ishlaydi, ta'sirchanlik va iroda sifatleri namoyon bo'ladi.

Vigotskiy, ; ...“aslini olganda Katren bilan Alenning mukammal rivojlanishi o'yin orqali amalga oshiriladi”⁴,-deb ta'kidlagan. O'yin bolaning ilm o'rganish jarayonida, ayniqsa intellektual o'sishida bugungi kunda eng muhim vositachi bo'lib qolmoqda. Uning ustiga so'nggi ilmiy tekshiruvlar o'yin orqali o'rganilmagan bilim tez yoddan ko'tarilishini tasdiqladi (Schweinhart & Weikert, 1996).⁵ O'yin nafaqat materiallar va jihozlardan foydalanishdan tashkil topgan, balki savodxonlik va fikrlar xilma-xilligini shakllantirishda foydalaniladigan so'zlar va fikrlardan ham iborat. Bundan tashqari, o'yin muammoni yechish ko'nikmasini shakllantirishga undab, ijodkorlikni rivojlantiradi. Ijtimoiy va hissiy rivojlanishlar ham o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yin umumiy rivojlanishni talqin etadi⁶.

⁴ Vigotskiy

⁵ Schweinhart & Weikert, 1996

⁶ Isenberg & Jalongo, 1997

"Bolalar ta'lim olish jarayonida o'zlari biladigan narsalarni barcha kategoriyalarda birlashtiradi" (Almy, 2000, p.10). Lawrence Frankning (1964) klassik fikrlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan: "Bolani mustaqillik bilan tanishtirishga undaydigan, mustaqil o'rganishga yo'naltiradigan va dunyoni faol kashf qilishga chorlaydigan o'yin kontsepsiyasi bolaning umumiy rivojlanishini kafolatlaydi... Bu ta'lim tizimimizni, qadriyatlarimizni va shaxsni mukammal rivojlanishga qo'shmoqchi bo'lgan g'ayratimizning tarjimasidir"⁷.

Suranskiy (1983) quyidagicha ogohlantiradi: "Bolalikda olib tashlangan o'yinlar, keyingi yillarda o'zining salbiy natijasini ko'rsatadi"⁸. Frobelning ta'kidlashicha, erkin o'yinda bolalar o'zlarining yangi qirralarini kashf qiladilar. Almi, Monigan, Skal va Van Xun (1984) bunday deydilar: "O'zining guruhdagi holati va dunyoviy ilmiy izlanishlaridan xabardor tarbiyachi o'yinning muhim roli mavjudligini alohida inobatga oladi... Tarbiyachining vazifa va mas'uliyatlaridan biri bolaning o'rgangan narsalarini qiyoslashi va mustahkamlashi uchun yangi narsalarni o'rganishi uchun ma'noli o'yinlarni uyushtirishdir"⁹.

Bolalar faoliyati rang-barangdir. Ular hammadan ko'proq o'yinni yoqtiradilar. Chunki o'yin bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg'ulotdir. O'yin - bolalarning o'zaro munosabatini yo'lga soladi, his-tuyg'usini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish jarayoniga o'yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi darslarni jonlantiradi.

Didaktik o'yinlar – ta'lim xarakteriga ega bo'lib, bolalar bilimining mustahkamlanishiga va kengayishiga, ularni umumlashtirishga, tizimga solishga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya berish jarayonida har xil didaktik o'yinlardan: og'zaki, stol ustida harakatli, ijodiy, hayolan sayohat, o'yin-viktorinadan

⁷ Lawrence Frankn 73-bet

⁸ Suransky 1983. 26-bet

⁹ Almi, Monigan, Skal va Van Xun 1984y. 43bet

foydalanish, muammoli holatlar keltirib chiqarish, yechimini topish, bahslashish, natijaga erishish dars samaradorligini oshiradi.

Didaktik o'yinlarning hususiyatlari shundaki, ta'limga aloqador masalalar, dars jarayonida o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq tarzda olib boriladi. Bola o'ynar ekan, u nimanidir o'rganishi haqida o'ylab o'tirmaydi, o'yin jarayonida nimanidir o'rganadi. Didaktik o'yin mazmuni ta'limning maqsadiga ko'ra tanlab olinadi.

XULOSA

Shunday qilib, o'yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi - boshqa tarbiya vositalari qatorida to'plangan ijtimoiy tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazilishini, bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. O'yinning ijtimoiy tabiatini shundan ham bilsa bo'ladiki, u faqat muayyan ijtimoiy sharoitda voqea bo'la oladi. Jamiyatning katta a'zolari bolalarning yashashi va o'sishi uchun zarur moddiy sharoit yaratish asnosida o'yinlarning rivojlanishi uchun ham ob'ektiv imkoniyatlar yaratadilar.

O'yin bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida bola tarbiyasidagi ahamiyati o'tmish va hozirgi zamonning ko'plab pedagogik tizimlarida tadqiq etilgan. Ko'pchilik pedagoglar o'yinni bola uchun juda jiddiy va muhim faoliyat sifatida baholashlari be'jiz emas.

Bola tarbiyasida o'yinning ikki yo'nalishi tarkib topgan:

1) o'yindan bolani har tomonlama uyg'un rivojlantirish maqsadida foydalanish;

2) o'yindan tor didaktik maqsadlarda foydalanish.

Biz aytgan birinchi yo'nalish egasi chex pedagog-demokrati Yan Amos Komenskiydir (1592 - 1670). U o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha, o'yin -

bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq dunyo xaqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi, birgalikdagi o'yinlar chog'ida bola o'z tengqurlari bilan do'stlashadi. Ya. A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlantirish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

O'yinda bolaning insoniy faoliyatining eng umumiy, eng asosli ma'nodagi hatti-harakati namoyon bo'ladi. Shaklan va mazmunan rang-barang bo'lgan o'yinlar bolani mavjud hayotiy hodisalar doirasiga olib kiradi, bunda kattalarning bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, ijtimoiy tajribalarini oldindan o'zlashtirish taminlanadi. O'yinda bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat, muomala usullari shakllanadi, hissi va didi tarbiyalanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yinlar bola shaxsining yuzaga kelishi sabablarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatar ekan. Bu jarayonda eng muhimi yondosh sabablarning paydo bo'lishi bo'lib, unda ijtimoiy ahamiyatga molik sabablar yetakchi o'rin ola boshlaydi. Ko'p va diqqat bilan o'ynaydigan bolalar kamroq sho'xlik qilishadi, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, tartibli va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib ulg'ayadi. Jozibali o'yin ta'sirida bolaning qanchalik o'zgarib ketishiga bir nazar tashlang-a! Kamgap bola ko'p gapiradigan, odamovi bola dilkash, qo'rs bola xushmuomala bo'lib qoladi. Tinib - tinchimas bola o'yinga berilganda boshqa hollarda bajara olmagan ishlarni o'yin jarayonida osonlik bilan amalga oshiradi. O'yin jarayonidagi muloqotlar bolalar uchun xulq - atvor normalarining amaliy maktabi bo'lib xazmat qiladi.


Ham

Ham o'ylaymiz,
o'ylaymiz,

ham


ham o'ynaymiz,
o'ynaymiz

Moslikni toping



Uchta bir xil xarakatdagi olmaxonlarni toping





Ayiqni asalga olib boradigan yo`lda 21 raqamini xosil qiling



Bo'sh kataklarni mos rasmlar bilan to'ldiring



Rasmga diqqat bilan qarang va ro'zg'or buyumlarini aniqlang: soat, taqa, sabzi, qovoq, qoshiq, samovor, choynak, stol, stul, dasturxon, shamchiroq, etik, chana, gilam



Bo'lishlarni bajaring va javoblarini tekshiring: "Nima qayerda yashaydi?"
Mana bu jonivorlarning uylarini topishga yordam bering. Hayvonlardagi sonlarni bo'lganda javob yozilgan natijaning orqasida uylari yashiringan. Hayvonlarni shu uycha oldiga qo'ying.




168:2



84



754:2



377




276:3



92



864:3



288



356:4



89



732:4



183



435:5



87



924:7



132

Таqqoslang



$$80 + 15 \square 80 + 11$$

$$30 - 7 \square 20 + 3$$


$$52 + 24 \square 50 + 24$$

$$27 - 3 \square 27 + 3$$



Olmaxon nechta qo`ziqorin terdi

Echki qaysi yo`ldan boradi




Mantiqiy masala

Bo'sh kataklarga mos sonlarni qo'ying. Har bir qator va ustundagi sonlar yig'indisi 15 bo'lsin.

		6
	4	
5		


4	5	6
6	4	5
5	6	4

Boshqotirmani to'ldiring






Qahramonlarni tanlab, ertakni davom ettiring



			
			
Juftliklarni to'g'ri toping			
			
			
			

Boshqotirmani ishlashda qunduzlarga yordam bering




4

2









Mashalarni sanashda ayiq polvonga ko' mak berin




Bo`sh kataklarga mos buyumlarni joylang

Bu uychada yashashga kim loyiq, kim esa begona






Boshqotirmaning kim birinchi to'ldira oladi



Buratinoga yordam bering.....





Sichqonni tutishda mushukga yordam bering

A maze puzzle with a path leading from Jerry the mouse at the top to Tom the cat at the bottom. The path is marked with numbers: 551, 552, 549, 550, 547, 548, and 546. The maze contains several cartoon characters in different rooms:

- Room 551: A girl in a blue dress and a boy in a red shirt.
- Room 552: A girl in a red shirt and a boy in a blue shirt.
- Room 549: A girl in a red dress and a boy in a blue shirt.
- Room 550: A girl in a yellow shirt and a boy in a red shirt.
- Room 547: A girl in a blue shirt and a boy in a red shirt.
- Room 548: A girl in a blue uniform.
- Room 546: A girl in a yellow dress.






1



2



3



4



9




7

Bu jonivorlarni taniysizmi



5



6



8



Rasmlar asosida ertak tuzing





Bu tasvirda nimalar yashiringan

SEXRI KVADRATLARNI TO'LDIRING

6		
	5	
		4

	3	
		9
6		

15

18






Begona rasmni toping




„Bahorgi bog“ boshqotirmasini ingliz tilida bajaring



			M			
			M			
			L			
			B			
			E			
			R			
			R			
			Y			

Bu dumchalar kimniki ekanini topa olasizmi






Эслатмалар асосида ушбу расмни бўяб чиқ:
2- сариқ, 3- қизил, 4- зангори, 5- сиёҳранг


«So'z o'yini»

"o" va "a" harfi qatnashgan bo'g'inlardan doskaga so'z tuzib, uni husnixat asosida yozib berishingiz lozim.

"A" - guruhi uchun:





"O" - guruhi uchun:



("A" guruhi: maktab, shahar, malla, barra, karra

"O" guruhi: tomon, somon, dono, so'g'lom, osmon)

Ushbu geometrik figuralarni shunday joylashtiringki natijada kema tasviri xosil bo'lsin





Kasimga qarab matn tuzing, unda "ostida", "ustida", "yonida", "ortida", "o'ngda",
"chapda" so'zlaridan foydalaning

Amallar tartibini bajaring

 $30+9$

 $55-5$

 $40+9$

 $50+7$

 $20+8$

 $32-2$

KIM CHAQQON

10:

5

* 2

= ?

4*

3

: 6

= ?

8*

2

: 2

= ?



O`yla, izla, top




Rebus boshqotirmani yechadi.
 Rasm nomlarining bosh xarflari yordamida qanday soʻz xosil boʻlishini toping

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13







Begonasini toping





Yetishmayotgan qismlar bilan rasmni butlang






Farqini topping

“O’xshashini top”


Bolalarga avval namunadagi rasmlar ko’rsatiladi, so’ng ularni berkitib quyidagi variantlardan namunada ko’rsatilganini topish talab qilinadi.



1



2




1




2



3



4



3



4







“Yodingda qolgani bo'yicha bo'ya”

Bolalarga avval yuqoridagi rasmlar ko'rsatiladi,

ular barcha rasmlarning rangini










eslab qolib so'ng pastdagi rasmni bo'yashlari kerak.



Akvariumda necha xil jonivor borligini toping



Regona rasmni belgilang



Rasmga qarab ertak to'qiy olasizmi






Amallarni bajaring





Siz nimalarni koryapsiz



Qaysi rangli qush eng ko'pi ekan



5-qator

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

1-qator

Hayvonlar o'tirgan joy va qatorlarni aniqlang

So`zlarni o`z uylariga joylashtiring

- Tob



- chi



- zor



kitob,
ishchi,
paxtazor ,
qurtob,
pattachi,

gulchi,
tokzor,
oftob,
maysazor,
toblandi,

gulzor,
betob,
suvchi,
qandolatchi,
mevazor.....



Xayvonlar uylarini to'g'ri topishganmi

Jumboqning javobini toping

$$\begin{array}{c} \text{Rabbit 1} + \text{Rabbit 1} + \text{Rabbit 1} = 36 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Rabbit 2} + \text{Rabbit 2} + \text{Rabbit 1} = 24 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Rabbit 1} + \text{Rabbit 2} * \text{Kitten} = 52 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \text{Rabbit 2} + \text{Kitten} * \text{Rabbit 1} = ? \end{array}$$



$$9-0$$



$$5+4$$

$$3+6$$

Quyoning do`stlarini toping



$$10-7$$



$$1+8$$

Vaqtni to'g'ri toping



13.50



15.00

11.20



15.30

12.45

10.10

20.00




Rasm qanday figuralardan iborat

Amallarni bajaring



Shakldagi kesmalarni toping




“7 savolga bir javob”

biror bir atamaga xos bo`lgan 7 jihat o`qiladi,
uning javobini o`quvchilar topadilar.


1. Go`zallik timsoli
2. Dunyoda eng ulug` zot
3. Sizni dunyoga keltirgan zot
4. Mehr-muhabbat sohibasi }
5. Uyingizning farishtasi
6. Qut-baraka bekasi
7. Beminnat mehr egasi



Nechta multfilm qaxramonlari ifodalangan



Rasmga qarab hikoya tuzing



Kapalak qaysi gullarga qo'nadi

$7+5$

$12+4$

$14-9$


$37-32$

$13-8$

5



Amallar natijasi asosida ranglarni tanlang va bo'yang











Amallarni bajaring va natija asosida rasmni bo'yab chiqing

X=6 - pushti, x=24- och zangori, X=7- apelsin rang, x=36- safsar
 X=8- to'q yashil x=42- xavorang, X=9- sariq























Rasmdagi o'zgarishni aniqlang






Moslikni toping






			
			
	Juftlikni toping		
			
			

Rasmda nimalar ifodalanganini toping
















Juftlikni chiziqlar bilan titashtiring





Rasmdagi geometrik figuralarni belgilang





Sichqong'a pishloqqa yo'l topishda yordam bering!

She'rni o'qing

Keldi bahor,



bahor,

Erib bitdi oppoq



Uchib keldi



taqdi marjon.



oqar shildirab,



boqar miltirab.



yayrashar,



sho'x

sayrashar.

Baliqui tut!




Bo`shliqlarni mos baliqlar bilan to`ldiring





Juftini toping





Chumolini uyasiqaga qaysi yo`l olib boradi



Ayiqchani mehmon qilamizmi



Yo`l qoidasini yaxshi bilasizmi



Natijani toping

$$\text{Banana} + \text{Banana} = 30$$

$$\text{Cherry pair} + \text{Cherry pair} = 20$$

$$\text{Green apple} + \text{Green apple} = 8$$

$$\text{Banana} + \text{Cherry} \times \text{Green apple} = ?$$

10

Arhani bezatishga yordam bering



$3+6$	$9+1$	$2+7$
$7+3$	$2+8$	$1+9$
$2+6$	$6+4$	$8+2$
$6+3$	$1+8$	$5+5$
$4+6$	$3+7$	

REBUSNI O`QING



YOG`OCH

SER  O`L  ”



SHARA



” MALAK



BURCHAK



” M



Begonasini aniqlang










Rasmlardan foydalanib, 6 xonali son yozing



Bo'laklardan birini markazga joylashtiring



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Anikeeva P. N. "Jamoada ruhiy muhit". Toshkent 1993 yil.
2. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlaridan foydalanish: Ped.fan. nom. ...dos. –Toshkent, 2006.
3. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – Moskva. 1995
4. Berdiev G., Ibragimov A., Raxbar psixologiyasi, T. 2005 yil
5. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida inovasion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari. //Uzluksiz ta'lim, 2010. – №3 46-49-betlar.
6. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod. 2008. 180-bet.
7. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod. 2010. 141 bet.
8. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent 2004 y
9. Interfaol metodlardan foydalanish. //Boshlang'ich ta'lim, 2008. №11, 26-31 bet Kto yest kto v mire, Moskva-2005
10. Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O'qituvchi, 1975.
11. Lyutova Y.K. Monina G.B. Trening effektivnogo vzaimodeystviya s detmi. S.P.b 2001g.
12. Makshanov S.I. Psixologiya treninga. Sant-Peterburg. 1997 g.
13. Marsanov G.I. Sotsialno – psixologicheskiy trening M. 1998 g.
14. N. Ismoilova, D. Abdullaeva. Trening o'tish metodikasi. Toshkent.: 2003
15. Tadjiev Z.G. Boshlang'ich sinf matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish. – T., 1981. – 149-bet.
16. Fedotova A.V.L Organizatsiya i provedenie treninga. Uchebnoe posobiye/ Pod. Red.: LGTU, 1991 g

17. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. T,2006
18. Dyachenko O.M., Veraksa N.E. Chto na svete ne bivaet? – M.: Znanie, 1994.–S
19. Luk A.N. Mishlenie i tvorchestvo. – M.: Politizdat, 1976. – S. 39.
20. Muxina V.S. Vozrastnaya psixologiya. – M.: Akademiya, 2000. – S. 210.
21. Xrestomatiya po vozrastnoy psixologii: Uchebnoe posobie dlya studentov / Sost. L.M. Semenyuk; Gl. red. D.I. Feldshteyn. – M.: MODEK,1998.–S.210.
22. Obuxova L.F. Detskaya psixologiya: teorii, fakti, problemi. – M.: Trivola,1995.–S.192.
23. Passov Y.I. Urok inostrannogo yazika v sredney shkole. - M., 1989. – S.83.
24. Piaje J. Rech i mishlenie rebenka: Per. s frants. i angl. / Sost., komment., red. perevoda Val. A. Lukova, Vl. A. Lukova. – M.: Pedagogika-Press,1994.– S.235.
25. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatel'nye texnologii: Uch. pos. – M.:Narodnoe obrazovanie,1998.–S.102.
26. Skatkin M.N. Shkola i vsestoronnee razvitiye detey. - M., 1980. – S. 96.
27. Elkonin D.B. Psixologiya igri. - M., 1978. – S. 38.
28. Shpalinskiy V.V. Diagnosticheskie metodi v rabote pedagoga: Uch. pos. – Dnepropetrovsk: Izd-vo DGU, 1992. – S. 29 – 33.

MUNDARIJA:

Soz boshi.....	4-6
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'yin ta'lim texnologiyasi asosida refleksiv ko'nikmalarini shakllantirish.....	6-16
O'yin – ta'limiy faoliyat sifatida.....	16-20
Bola shaxsini rivojlantirishda didaktik o'yinlar.....	20-24
Xulosa.....	24-26
Ham o`ynaymiz-ham o`ylaymiz.....	26-111
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	112-113

СОДЕРЖАНИЕ:

Введение.....	4-6
Формирование рефлексивных навыков на основе игровых технологий у учащихся начальных классов.....	6-16
Игра в качестве учебной деятельности.....	16-20
Дидактические игры в развитии личности ребёнка.....	20-24
Заключение.....	24-26
И думаем и играем.....	26-111
Список использованной литературы.....	112-113